



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING QARORI

2026-yil 19-fevral

№ 2108

Hududlarda sudyalarni majburiy tartibda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-noyabrdagi "Sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqligini oshirish hamda sud mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-227-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 10-bandi ijrosini ta'minlash hamda sudyalarning sog'lig'ini muhofaza qilish, kasbiy faoliyatini to'liq va sifatli amalga oshirish qobiliyatini baholash, kasbiy xavf omillarini barvaqt aniqlash maqsadida

QAROR QILADI:

1. "Hududlarda sudyalarni majburiy tartibda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom 1-ilovaga muvofiq, Sudyaning chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tganligi to'g'risida tibbiy xulosa 086-1-shakli 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat va unga tenglashtirilgan sud raislari barcha sudyalarni dastlab 2026-yil 20-martga qadar, keyinchalik bir yilda kamida bir marta belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tishini tashkil etsin.

3. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi
bilan kelishilgan.

Hududlarda sudyalarni majburiy tartibda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida

N I Z O M

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom hududlarda faoliyat yuritayotgan sudyalarni majburiy tartibda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazishning maqsadi, vazifalari, tartibi va shartlarini belgilaydi.

2. Mazkur Nizom sudyalarning sog'lig'ini muhofaza qilish, ularning kasbiy faoliyatini samarali va uzluksiz amalga oshirishini ta'minlashga qaratilgan.

3. Nizom talablari barcha sudlar sudyalari uchun majburiy hisoblanadi.

2-bob. Tibbiy ko'rikdan o'tkazishning maqsadi va vazifalari

4. Sudyalarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

sudyalarning sog'liq holatini muntazam baholab borish;

kasbiy faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kasalliklarni erta aniqlash;

profilaktik tibbiy chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish.

5. Tibbiy ko'rik sudyalarning mehnat qobiliyatini saqlash va kasbiy faoliyatda yuqori mas'uliyatni ta'minlashga xizmat qiladi.

3-bob. Tibbiy ko'rikni tashkil etish tartibi

6. Chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika shifoxonasi, viloyatlar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, Toshkent shahar diagnostika markazida pullik asosda tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

Pulli xizmat tariflari har bir tibbiyot muassasasi tomonidan alohida belgilanadi.

7. Sudyalar kamida yiliga bir marotaba majburiy tartibda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tadilar.

8. Zarur hollarda (tibbiy ko'rsatmalar, xizmat faoliyati xususiyatidan kelib chiqqan holda) qo'shimcha tibbiy ko'rik o'tkazilishi mumkin.

9. Tibbiy ko'rikda quyidagi mutaxassislar maslahati va tibbiy tekshiruvlar amalga oshiriladi:

Terapevt ko'rigi;
Nevropatolog ko'rigi;
Endokrinolog ko'rigi;
Dermatovenerolog ko'rigi;
Kardiolog ko'rigi;
Jarroh;
Stomatolog;
Psixolog (yoki psixiatr) ko'rigi;
Narkolog ko'rigi;
Otorinolaringolog ko'rigi;
Oftalmolog ko'rigi;
Flyuorografiya tekshiruvi;
Elektrokardiografiya;
Jigar va buyrak UTT;
Audiometriya;
Qonning umumiy tahlili, qonda qand, xolesterin ALT, AST, billirubin miqdori, RW, OIV;
EEG, ExoEG, REG;
Tibbiy ko'rsatma asosida boshqa tekshiruvlar ham o'tkaziladi.

10. Ushbu muassasada psixolog (psixiatr), narkolog bo'lmagan taqdirda ruhiy asab kasalliklari va narkologiya dispanseriga yo'llanadi.

Agar sudya ruhiy/narkologik kasalliklar bo'yicha dispanser hisobida tursa yoki ushbu kasalliklarga gumon aniqlansa qo'shimcha tekshiruv va maslahatlar tasdiqlangan klinik protokollar asosida o'tkaziladi.

4-bob. Tibbiy ko'rikni tashkillashtirish

11. Viloyat va unga tenglashtirilgan sud raisi tibbiyot muassasini mazkur nizomga asosan tibbiy ko'rikdan o'tishga yuborilayotgan sudyalarni to'g'risida 5 kun oldin xabardor qiladi.

Bunda, tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxati taqdim etiladi hamda tashkilot nomi, xodimning familiyasi, ismi va sharifi, lavozimi, tug'ilgan yili ko'rsatiladi.

12. Tibbiyot muassasi tomonidan hududiy sudyalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish grafigi tuziladi.

13. Tibbiy ko'rik ish vaqti davrida o'tkaziladi. Tibbiy ko'riklarni o'tkazish vaqtida

xodimning ish joyi (lavozimi) va mehnatga haq to'lash shartlari saqlanadi.

14. Sudyalar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjati bilan kelishi lozim.

15. Tibbiyot muassasida Sudyalar tibbiyot muassasasining mas'ul xodimi tomonidan "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimi orqali ro'yxatga olinadi va chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tish uchun tegishli tor soha mutaxassisiga yo'naltiriladi.

16. Mutaxassislar tomondan tekshiruv yakunida Sudyalarning sog'lig'i holati to'g'risida 2-ilovaga muvofiq shaklda xulosa beradi.

Bunda zaruratga ko'ra shifoxonaga ambulator yoki statsionar sharoitda davolanish uchun tavsiya beriladi. Tavsiya xulosada aks ettiriladi.

17. Ambulator sharoitda davolanish tavsiyasi berilgan Sudyalar oilaviy shifokor nazoratida turadi.

18. Chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik jaryonida shishilinch tibbiy yordamga ehtiyoj to'g'ilganda belgilangan tartibda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatiladi.

19. Sudyalar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik natijalari ular birlashtirilgan oilaviy shifokorga "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimi orqali yuboriladi.

5-bob. Sudyalarning huquq va majburiyatlari

20. Sudyalar tibbiy ko'rikdan o'tish davomida to'liq va ishonchli tibbiy xizmat olish huquqiga ega.

Sudyalalar ushbu Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda tibbiy ko'rikdan o'tishga majburdirlar.

6-bob. Tibbiy ko'rikdan o'tkazish ishlarini tashkil qilish bo'yicha javobgarlik

21. Tibbiy ko'rikning sifatli o'tkazilishiga tibbiy ko'rikdan o'tkazuvchi davolash-profilaktika muassasasining rahbari javobgar hisoblanadi.

22. Tibbiy ko'rikdan o'tishi shart bo'lgan sudyalarning tibbiy ko'rikda ishtirok etishini ta'minlashga viloyat va unga tenglashtirilgan sud raislari mas'ul hisoblanadi.

22. Tibbiyot muassasasi rahbarlari berilgan ro'yhat asosida tibbiy ko'rikni tashkillashtirishga mas'ul.

7-bob. Tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligi

23. Sudyalarning tibbiy ko'rik natijalari shifokor siri hisoblanadi.

24. Tibbiy xulosalar sudyaning kasbiy faoliyatiga oid qarorlar qabul qilishda faqat qonunchilikda belgilangan tartibda hisobga olinishi mumkin.

25. Kasbiy faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik bor tibbiy xulosasi sudyada kasbiy vazifalarni to'liq va mustaqil amalga oshirishga imkon bermaydigan, tibbiy komissiya tomonidan tasdiqlangan og'ir yoki barqaror sog'liq buzilishlari mavjud

bo'lgan hollarda, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklarning va jismoniy nuqsonlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" 2017-yil 9-noyabrdagi SOKQ-374, 123-son qarori (ro'yxat raqami 2951, 2017-yil 23-noyabr) bilan tasdiqlangan "Odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklarning va jismoniy nuqsonlarning ro'yxati"ga kiritilgan kasallik va holatlarning biri aniqlansa beriladi.

Tibbiy ko'rikdan o'tgan sudyalar tibbiy ko'rik natijalari ma'lumotnomasini viloyat va tenglashtirilgan sud raislari Sudyalar oliy kengashiga taqdim etadi.

26. Mazkur xulosalar faqat tegishli mutaxassislar ishtirokidagi tibbiy komissiya tomonidan beriladi, tibbiy ko'rik va tekshiruvlar natijalariga tayanadi va yozma tarzda rasmiylashtiriladi.

8-bob. Moliyalashtirish masalalari

27. Sudyalar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan pullik asosda tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

28. Pullik xizmat tariflari har bir tibbiyot muassasasi tomonidan alohida belgilanadi.

29. Sudyalarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar tibbiy ko'rikdan o'tkazuvchi davolash-profilaktika muassasasi bilan sudyalarning kelishuvi asosida o'z hisobidan qoplanadi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

30. Ushbu Nizom talablariga rioya etmaslik qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

**Sudyaning chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan
o'tganligi to'g'risida
TIBBIY XULOSA 086-1**

20__ yil " ____ " _____ to'ldirildi.

1. Berildi _____
(ma'lumotnomani bergan muassasa nomi)

2. Ma'lumotnoma taqdim etiladigan muassasa va tashkilot nomi _____

3. Familiya, ismi _____

4. Jinsi E/A _____ 5. Tug'ilgan sana _____

6. Yashash joyi _____

7. Hayoti davomida o'tkazgan kasalliklari _____

8. Tekshiruv paytida obyektiv ma'lumotlar va salomatlik holati:

Terapevt _____

Jarroh _____

Nevropatolog _____

Endokrinolog _____

Psixiatr _____

Narkolog _____

Otorinolarinolog _____

Oftalmolog _____

Stomatolog _____

Dermatovenerolog _____

Boshqa mutaxassislar _____

9. Rentgen (flyuorografik) tekshiruv ma'lumoti _____

10. Elektrokardiografiya _____

11. UTT tekshiruv ma'lumoti _____

11. Laborator tekshiruvlar ma'lumoti _____

12. TNK xulosasi: Po'yxatda* ko'rsatilgan kasallik aniqlandi (aniqlanmadi) zarurini tagiga chizilsin

TNK raisining F.I.SH., imzosi _____

Tibbiyot muassasasi rahbari
(elektron imzo, muhr)

Eslatma*: Odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklarning va jismoniy nuqsonlarning ro'yhatiga (Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 23-noyabrda ro'yhatdan o'tkazilgan, ro'yhat raqami 2951) muvofiq beriladi.